



**BO'LAJAK BOSHLANG'ISH SINFI O'QITUVCHILARIDA KASBIY
MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

Zikirova Nodira Yo'ldoshevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchi

zikirovanodira95@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada Bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarini kasbiy motivatsiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo'nalishlari, uning mazmuni, kasbiy motivatsiyani rivojlantirish omillari tadqiq qilingan. Shuningdek, "kasbiy faoliyat", "kasbiy sifatlar", "kasbiy kompetentlik", "metodik tayyorgarlik" tushunchalarining nazariy va umumiy jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: *kasbiy faoliyat, kasbiy sifatlar, kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetentlik, metodik tayyorgarlik.*

ANNOTATION.

This article examines directions for improving the methodology of developing professional motivation in future primary school teachers, its content, and factors for developing professional motivation. It also scientifically substantiates the theoretical and general aspects of concepts such as "professional activity," "professional qualities," "professional competence," and "methodological preparation."

Key words: *Professional activity, professional qualities, professional motivation, professional competence, methodological preparation*

АННОТАЦИЯ.

В статье рассматриваются направления совершенствования методики формирования профессиональной мотивации будущих учителей начальных классов, а также содержание этого процесса и факторы, влияющие на развитие профессиональной мотивации. Кроме того, научно обосновываются теоретические и общие аспекты таких понятий, как «профессиональная деятельность», «профессиональные качества», «профессиональная компетентность» и «методическая подготовка».

Ключевые слова: *профессиональная деятельность, профессиональные качества, профессиональная мотивация, профессиональная компетентность, методическая подготовка.*

Kirish

Pedagogikada "kasbiy motivatsiya" – bu yoshlarning, ayniqsa, boshlang'ich sinfi o'qituvchilari kabi pedagogik kasbni tanlagan yosh avlodning o'zlarining kasbiy



rivojlanishini shakllantirishga bo'lgan ishtiyoqini, shuningdek, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kasbga bo'lgan ijobiy munosabatini tashkil etish jarayonini anglatadi.

Kasbiy motivatsiya nuqtai nazaridan faoliyat samaradorligining eng muhim va murakkab omili- bu insonning o'z ishidan qoniqishidir: bajarilgan ishni his qilish va undan qoniqish mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi. Binobarin, ishdan qoniqish nafaqat ishlash samaradorligini oshiradi, balki ishlash samaradorligi ham kasbiy faoliyatdan qoniqish darajasini oshiradi.

Shunday qilib, kasbiy motivatsiya kasbiy faoliyat samaradorligi va insonning o'z ishidan qoniqishining eng muhim omillardan biridir.

Insonning yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantiradigan quyidagi motivatsion holatlar mavjud: qiziqishlar (shaxsning tegishli bilim faoliyatini rag'batlantiradigan kognitiv ehtiyojlarning motivatsion namoyon bo'lishi), istaklar (bu ehtiyojlarni qondirishga imkon beradigan muayyan obyektlar bilab bog'liq bo'lgan ehtiyojlar), moyillik (ayrim turlarga bo'lgan ustun intilishlar), faoliyat (intilishlar, niyatlar, maqsadlar, qadriyatlar va boshqalar).

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasining shakllantirish – bu, pedagogika ta'limi olayotgan yosh mutaxassislarining kasbiy faoliyatga bo'lgan ishtiyoqini, qiziqishini va ijobiy munosabatini rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini yordam berishi, ularni o'qitish va pedagogik ish faoliyatiga havas va mas'uliyat bilan qarashga undaydi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, kasbiy motivatsiyani shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

1. Individual yondashuv: har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va kasbiy maqsadlari hisobga olinishi kerak. Buning uchun maxsus treninglar, seminarlar va shaxsiy qo'llab – quvvatlash dasturlari tashkil etiladi.

2. Amaliyotga asoslangan ta'lim: boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga tayanish muhimdir. Amaliyat davomida talabalar turli pedagogik vaziyatlarini o'rganadilar va o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Jamiyat va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik: o'qituvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish uchun ularga jamiyat va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari taqdim etiladi. Bu hamkorlik bo'lajak o'qituvchilarga kelajakdagi kasbiy faoliyatlari davomifda real shart-sharoitlarni tushunish va kasbiy faoliyatga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, talabalarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish ularga o'z kasbiy yuksalishlariga ishonch hosil qilish va muvaffaqiyatga erishish uchun lozim bo'lgan resurslar va imkoniyatlar bilan ta'minlanishini anglatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi asosiy omillardan biri – bu ularning kasbiy motivatsiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashtirishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish uning dastlabki



kasbiy tayyorgarligi jarayonida ham, oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida ham, auditoriyada va mustaqil ta'lim jarayonida ham amalga oshiriladi.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan zamonaviy kasbiy bilim, ko'nikma va malaklarni jamiyat ehtiyojlari asosida belgilanishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim mezon sanaladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy – metodik tayyorgarligi uning o'qitish texnologiyalari va har xil o'qitish turlarini tashkillashtira olish kabi metodik bilimlarga egaligi bilan belgilanadi.

Metodik tayyorgarlik sifatining ko'rsatilgan xususiyati kasbiy tayyorgarlikning asosiy maqsadi- pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni shakllantirish bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchilar metodik tayyorgarligining asosi-bu uning kompetentligidir. Kasbiy kompetentlik- bu kasbiy bilim, ko'nikma va malakalri darajasining yuqoriligi bo'lsa, pedagogik kompetentlik qator zaruriy umuminsoniy sifatlarga ega bo'lishidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va ko'zlangan natijaga erishish uchun bilishi zarur bo'lgan tushunchalar, egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalar va ularda shakllanishi zarur bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi asosiy omillardan biri- bu o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. O'qitish jarayonining rivojlangan darajasi “kasbiy faoliyat”, “kasbiy sifatlar”, “kasbiy kompetentlik”, “metodik tayyorgarlik” tushunchalari kasbiy faoliyatni amalga oshirishga doir bilimlarning pedagogik amaliyotda ulardan foydalanish tamoyillariga asoslanganligi, umumiyliigi, ijtimoiy rivojlanish talablariga muvofiqiligi bilan belgilanadi. Ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning ta'lim natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ta'lim muhitidagi muhim omillardan biri- bu o'qituvchining kasbiy kompetentligi va mahorat darajasi hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish, metodik tayyorgarligini takomillashtirish uning dastlabki kasbiy tayyorgarligi (oliy ta'lim muassasalarida) jarayonida ham amalga oshiriladi.

Hozirgi bosqichda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishning bir qancha yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

pedagogik faoliyatida o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishga qaratilgan umumiy va maxsus bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish;

pedagogik faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish;

metodik faoliyatni shakllantirish, uning usullarini mohirona o'rganish (ushbu faoliyatni amalga oshirish usullari uslubiy muammolarni shakllantirish va hal qilish bilan bog'liq);

bo'lajak o'qituvchida amaliy tajribani yaratish;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish jarayonini isloh qilish.



Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish alohida yondashuvni talab qiladi. O'qitish jarayonining ishtirokchisi, ta'lim muhitining tashkil etuvchisi sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ijtimoiy talab va ehtiyojlar, shuningdek, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4545884>.
3. Karlibaeva G.E. Innovation texnologiyalardan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda foydalanish // O'zbekiston Milliy universiteti xabarleri. –Toshkent: –2018. – №3. –B. 228–230.
4. Urazbayeva Y.A. Ta'lim jarayonida o'quv motivatsiyasi shakllanishining o'ziga xosligi // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2023, 15-son., 132-134-b.